

Sinf: 4-sinf | Fan: Matematika | Yondashuv: STEM asosida

Mashg'ulotning maqsadi

✦ O'quvchilar aniq son va taxminiy (taqribiy) son farqini tushunadilar. Ular sonlarni yaxlitlash, atrofida yaqin qiymat topish, real holatlarda taxmin qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Mashg'ulot davomiyligi

⌚ 45 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurslar 4-sinf Matematika darsligidagi **Aniq va taqribiy qiymatlar** mavzusidagi topshiriqlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

1234 Aniq qiymat – bu to'liq va o'zgarmas son, masalan: 374

÷ Taqribiy qiymat – bu yaqinlashtirilgan, oddiylashtirilgan son, masalan: 370 yoki 400

🎯 Yaxlitlash:

1–4 → pastga qarab

5–9 → yuqoriga qarab

Masalan:

• 58 ≈ 60

• 173 ≈ 170 yoki 200 (bog'liq holda)

🧠 Taqribiy qiymatlar tez hisob-kitob qilish yoki taxminiy javob olish uchun ishlatiladi.

🔧 **Amaliy mashg'ulot: "Narxni taxmin qilamiz"**

🎯 **Mashg'ulot maqsadi:** O'quvchilar turli mahsulotlar yoki sonlar asosida aniq va taxminiy qiymatlarni topish hamda ularni solishtirishni o'rganadilar.

📄 Mashg'ulot bosqichlari:

1. Masalalar bilan ishlash (Texnologiya integratsiyasi):

– Mahsulot narxlari: Olma – 1870 so'm, Non – 2950 so'm, Sut – 4080 so'm

– Taqribiy narxini yozish: 1900, 3000, 4100

2. Taqribiy yig'indini hisoblash:

- Har bir mahsulot uchun aniq va taqribiy qiymatlarni ajratib yozadilar
- Yig'indilarni taqqoslaydilar

3. Informatika integratsiyasi:

- Excel: ikki ustunli jadval – “Aniq narx” va “Taqribiy narx”

STEM fanlar bilan integratsiyasi

Matematika

- Yaxlitlash, taxmin qilish
- Solishtirish, yaqin qiymat topish

Texnologiya

- Ishlab chiqarishdagi og'irlik yoki narx taxmini
- O'lchovlarda aniqlik va soddalashtirish

Informatika

- Excelda aniq va taxminiy qiymatni ajratish

Tabiiy fanlar

- Harorat, masofa, vaqtni taxmin qilish
- Ko'rsatkichlardagi aniqlik darajasi

Qiziqarli fakt

 Telefonlarimizdagi kalkulyator 7 raqamdan ortiq sonlarni kiritsangiz, faqat taxminiy natija chiqaradi!